

Interdisciplinary Conference of Young Scholars in Social Sciences

YANGI O‘ZBEKISTON MA’RIFATLI JAMIYATINI YARATISHDA YOSHLARNING O‘RNI

Alisherov Shoxruxbek Mirzohidjon og'li

*Farg'ona Politexnika Instituti Qurilish fakulteti Geodeziya Kartografiya va Kadastr yo'nalishi
2-bosqich talabasi*

Annotasiya: Ushbu maqolada Mustaqillik davridagi o'zgarishlar, hozirgi kunda yangi O'zbekistonda yoshlarga bo'lgan e'tibor, ularni Vatanparvarlik ruhida o'sishi, ta'lim-tarbiya olishi, jahon arenalarida yuksaklarga chiqayotgan o'smirlarimiz, O'zbekistonning ertangi yorug' va farovon hayoti, kelajagi ular qo'lida ekanligi eng asosiysi ma'rifatli jamiyat qurishda yoshlarning ro'li juda muhimligi ko'rsatilgan.

Kalit so'zlar: Jamiyat, murojaatnoma, "Harakatlar Strategiyasi", Mustaqillik, yurt tinchligi, Vatan ravnaqi, inson qadri, xalq faravonligi, yosh avlod, "Taraqqiyot Strategiyasi".

Barchangizga ma'lumki, mustaqillik sharofati bilan mamlakatimizda Ijtimoiy adolat va huquqiy tenglik tamoyillari to'liq qaror topgan, yuksak ma'naviyat va ma'rifatga ega bo'lgan jamiyat barpo etish, yurtdoshlarimizning asriy orzularini ro'yobga chiqarish imkoni paydo bo'ldi. Ushbu niyatlarga erishish esa, ko'plab omillar bilan bevosita bog'liq bo'lib, yurtimizda mustaqil taraqqiyotning dastlabki davrlaridan boshlab bu omillar aniq – ravshan belgilab olindi va ularga tayangan holda sa'y-harakatlar amalga oshirishga kirishildiki, aytish mumkinki, bular o'tgan qisqa davr mobaynida erishilgan barcha ijobiy natijalarimizning garovi bo'ladi. Bunda aholining eng nozik qatlami bo'lgan yoshlarga nisbatan hukumatimiz tomonidan alohida munosabatda bo'linganligi eng e'tiborga molik jihati bo'ldi deyish mumkin. Shuni takidlash joizki, aslida, mustaqillik davriga kelib yoshlarga nisbatan alohida munosabatda bo'lish zarurligini hayotning o'zi taqozo qila boshladi. Xususan, bu davrga kelib jamiyat taraqqiyoti yangi izga ko'chirilishi bilan ayrim muammolarga ham duch kelina boshlaganligini bugun yodga olish o'rinlidir. Gap shundaki, muayyan qadriyatlarga e'tiqod qo'yib yashash jamiyat taraqqiyotiga xos bo'lgan muhim xususiyatlardan biridir.

Mustaqillik tufayli sobiq sovet tuzimiga xos bo'lgan qadriyatlardan voz kechilishi oqibatida ma'lum bir davr mobaynida kishilar ongida g'oyaviy bo'shliqning vujudga kelishi tufayli ayrim yod g'oyalarning kirib kelish jarayonida ancha jonlanish ko'zga tashlana boshladi. Bu xodisa jamiyat aholisining keng qatlamlarini nishonga ola boshlaganligi pirovard oqibatda salbiy hodisalarning yuz berishiga sababchi bo'ldi. Afsuski, bunday mafkuraviy xurujlar ta'siriga tushib qolish oqibatida ko'p hollarda asosan yoshlardan iborat guruhlar ana shu g'anim kuchlarning zararli g'oyalarni singdirib, ularning nog'orasiga o'ynash, o'z yurti va Vataniga ochiqdan-ochiq hiyonat qilish, kishilarning tinch-osoyishta turmushini buzish, turli ekstremistik hatti-harakatlarni sodir etish yo'liga o'tib oldilar. Natijada barchamizning xotiramizda o'chmas iz qoldirgan muthish voqealar sifatidagi ba'zi qo'poruvchilik harakatlarini sodir etdilar. Hali turmush tashvishlarini tatib ko'rmagan, hayotning og'ir-yengil sinovlariga duch kelmagan ayrim g'o'r yoshlar uchun bunday makkaron qarmoqqa osongina ilinish ularning boshiga mutxish sinovlarni soldi, do'st bilan dushmaning, chin bilan yolg'onning, haqiqat bilan bo'xtonning farqiga yetib ulgirmagan sodda yoshlarimizning bu vakillari murakkab hayotiy imtixonlar bilan yuzma-yuz kelishiga tog'ri keldi.

Ro'y bergan ushbu voqea-hodisalar ham o'z navbatida mamlakatimizda jamiyat va davlat boshqaruvida yoshlarga nisbatan, ularning ijtimoiy ongini va dunyo qarashini shakillantirish,

Interdisciplinary Conference of Young Scholars in Social Sciences

ayniqsa, huquqiy ongi va madaniyatini qaror toptirishda o'ta dolzarb masala sifatida qarash lozimligini bildiradi. Qolaversa, bu masalaga jamiyat boshqaruvida davlat siyosatining ustuvor vazifalaridan biri sifatida munosabatda bo'lish lozimligini ko'rsatadi.

Ma'lumki, mamlakatimiz Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev 2020-yil 29-dekabr kungi Respublikamiz Oliy Majlisda so'zlagan Murojatnomasida ham alohida ta'kidlaganidek, yurtimiz aholisining uchdan ikki qismi(65%) yoshlardan iborat, uning istiqboli ham aynan ular qo'lida. Shunday ekan, yurtimiz taraqqiyotining ertangi kuni ham bugungi yoshlarga nisbatan qanchalik qayg'urish, ularning turli ehtiyojlarini atroflicha o'rganish, mehr-muruvvat ko'rsatishga bog'liq. Bu to'g'rida Murojatnomada alohida qayd etildiki, endilikda yurtimizda "Bola tug'ilganidan boshlab, 30 yoshgacha bo'lgan davrda uni har tomonlama qo'llab-quvvatlaydigan, hayotda munosib o'rin topishi uchun ko'mak beradigan, yahlit va uzluksiz tizim yaratiladi".

Xuddi shu bois Prezidentimiz tashabbusi bilan 2021-yil O'zbekistonda "Yoshlarni qo'llab-quvvatlash va aholi salomatligini mustahkamlash yili" deb ataldi. Murojaatnomada alohida urg'u berilganidek yangilanayotgan O'zbekiston demokratik huquqiy davlat sifatida mamlakatimizda adolatli fuqarolik jamiyat qurish yo'lidan bormoqda. Yurtimizda fuqarolarning, ayniqsa, yoshlarning salohiyatini ko'tarish, ularning huquqiy saviyasi va bilimlarini oshirishga katta e'tibor qaratilmoqda. Aytish mumkinki, yoshlarning huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirish avvalo xalqimizning o'ziga xos turmush tarzi, boy tarixi va madaniyati, o'tmish qadryatlarini har tomonlama chuqur o'rganish negizida amalga oshirish uchun harakat qilinayotganligi bugungi kunda o'zining ijobiy samaralarini bermoqda.

Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyevning yaqinda yurtimiz yoshlari bilan ochiq muloqot chog'ida mamlakatimizda yoshlar muammolarini o'rganish, ularni o'z vaqtida hal qilish, huquq va g'oyalari atrofida birlashtirish va yakdil qilish maqsadida hukumatimiz tomonidan ko'rsatilayotgan alohida g'amhorliklar misolida qayd etildi. Mamlakat rahbarining bunday g'amhorligi o'z navbatida yoshlarimiz tomonidan shu yurtga sadoqat bilan xizmat qilish, uning koriga yarash, ertangi kuni uchun qayg'urish singari fazilatlarini namoyon etishda isbotini topmog'i lozim. Yoshlar uchun yaratilayotgan sharoitlar kundan kunga ortib bormoqda. Ularni ruhan, jismonan yetuk bo'lib voyaga yetishishi maqsadida sport komplekslari, zamonaviy maktablar qurib bitkazilib fodalanihga topshirilmoqda.

Yoshlar bilan uchrashuv mobaynida ularning fikrlari, g'oyalari eshitilib, o'sha joyning o'zida ijobiy hal etildi. Hursand bo'ladigan joyi shundaki, Prezidentimiz yoshlardagi shijoat, kuch-g'ayratni, ko'zlaridagi ertangi kunga bo'lgan ishonchni ko'rib, ulardan kuch-quvvat oldi desam mubolag'a bo'lmaydi.

Darhaqiqat, yoshlarimiz bildirilgan ishonchga "labbay" deb bermoqdalar, Vatanimizning bayroqlarini Jahon arenalarida yuksalarga ko'tarmoqdalar. Xususan 2021-yil Tokioda bo'lib o'tgan yozgi Olimpiada o'yinlarida sportchilarimiz yuksak natijalarga erishdilar, quvonarlisi xatto Jahon rekordini ham qayd etgani kishida o'zgacha fahr tuyg'usini uyg'otadi. Bahodir Jalolov va Ulug'bek Rashidovlar singari o'zbekning mard o'g'lonlari medallar shodalarini Vatanimiz mustaqilligining 30-yillik to'yiga tuhfa etdilar. Kuni kecha Shaxmat bo'yicha o'tkazilgan Jahon chepionatida Nodirbek Abdusattorov amaldagi chempion Magnus Karlsnni mag'lub etib chempionlikni qo'lga kiritdi. Barchamizga malumki Prezidentimiz aytganidek "Inson qadri uchun" tamoyili asosida 20221-2026 yillarga mo'ljallangan "Taraqqiyot Strategiyasi" ishlab chiqildi. Kelgusida ushbu Strategiyada ham bir qancha islohatlarni, keng ko'lamdagi o'zgarishlarni va eng asosiysi Inson qadri-qimmatini uchun zarur bo'lgan barcha ishlarni amalga oshiramiz.

Bunday yuragida o'ti bor, tog'ni talqon qiladigan, ilmu-ziyo olamda tengsiz bo'lgan yoshlarimiz yangilanayotgan O'zbekistonning, uning istiqbolli kelajagining bunyodkorlari desak maqsadga muvofiq bo'ldi.

Interdisciplinary Conference of Young Scholars in Social Sciences

Aziz tengdoshlarim! “Qo‘lni qo‘lga bering do‘stlar! Bir tanu bir jon bo‘laylik. Yurtboshimiz orzu qilgan kelajakni quraylik”

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. 2021-yildagi Prezident Sh.M.Mirziyoyevni Oliy Majlis va Xalqqa Murojaatnomasi.
2. 2017-2021-yillarga mo‘ljallangan "Harakatlar Strategiyasi"
3. Олтмишева Насибохон Гулямжоновна Методы повышения познавательной и творческой активности молодежи // Вопросы науки и образования. 2019. №4 (49). URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/metody-povysheniya-poznavatelnoy-i-tvorcheskoj-aktivnosti-molodezhi>
4. Насибохон Гуломжоновна Олтмишева ЁШЛАР ИЖТИМОЙ ФАОЛЛИГИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ – ЖАМИЯТ ТАРАҚҚИЁТИНИНГ МУҲИМ ОМИЛИ // Scientific progress. 2021. №1. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/yoshlar-izhtimoiy-faolligini-rivozhlantirish-zhamiyat-tara-iyotining-mu-im-omili> (дата обращения: 06.01.2022).
5. Burkhonov, I. (2021, June). THE IMPORTANCE OF THE SCIENTIFIC HERITAGE OF ASOMIDDIN URINBOYEV IN THE STUDY OF THE HISTORY OF THE KOKAND KHANAT. In *Конференции*.
6. Burkhonov, I. M. (2020). “ZAKAT” HAS ENSURED FAIRNESS AND BALANCE IN SOCIETY. *Theoretical & Applied Science*, (5), 201-204.
7. Muhiddinovich, B. I. (2020). Negative impact of the tax system on political life-on the example of the history of the Kokand Khanate (1850–1865). *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 10(5), 790-795.
8. Burkhonov, I. (2021, August). THE IMPORTANCE OF THE SCIENTIFIC HERITAGE OF ASOMIDDIN URINBOYEV IN THE STUDY OF THE HISTORY OF THE KOKAND KHANAT: <https://doi.org/10.47100/conferences.v1i1.1242>. In *RESEARCH SUPPORT CENTER CONFERENCES* (No. 18.05).
9. Бурхонов, И. М. (2019). ҚЎҚОН ХОНЛИГИ МАЪМУРИЙ БОШҚАРУВИДА СОЛИҚ ТИЗИМИНИНГ СИЁСИЙ ҲАЁТГА САЛБИЙ ТАЪСИРИ (1850-1865). *ВЗГЛЯД В ПРОШЛОЕ*, (19).
10. Burkhonov I.M.(2021) FROM THE HISTORY OF THE TRANSLATION OF THE WORK OF ABURAZZAK SAMARKAND «MATLA'I SA'DAYN AND MAJMA'I VAHRAIN» "Экономика и социум" №11(90)2021,138-144
11. Бурхонов, И. М. (2020). «ЗАКОТ»-ХАЛҚИМИЗ ҲАЁТИДА АДОЛАТ ВА МУТАНОСИБЛИК ОМИЛИ. *ВЗГЛЯД В ПРОШЛОЕ*, 3(5).
12. ХАТАМОВА ЗУМРАДХОН НАЗИРЖОНОВНА, (2020) ОСОБЕННОСТИ НАЛОГОВОЙ СИСТЕМЫ КОКАНДСКОГО ХАНСТВА, 5 (295) МОЛОДОЙ УЧЕНЬИ, 254-256.
13. Nazirjonovna, N. Z., & Abdumannobovich, N. M. (2020). Tax system on the territory of kyrgyzstan during the Kokand Khanate. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 10(6), 209-212.
14. Xatamova, Z. (2020). Expenditure of state funds replenished by taxes in the history of the kokand khanate. *EPRA International Journal of Research and Development (IJRD)*, 5(3), 274-277.



Interdisciplinary Conference of Young Scholars in Social Sciences

15. Хатамова, З. (2021, August). EXPENDITURE OF INCOME FROM TAXES AND LEVIES IN THE KOKAND KHANATE: <https://doi.org/10.47100/conferences.v1i1.1230>. In *RESEARCH SUPPORT CENTER CONFERENCES* (No. 18.05)..
16. Хатамова, З. Н. (2020). ҚЎҚОН ХОНЛИГИДА СОЛИҚЛАР ҲИСОБИГА ТЎЛДИРИЛГАН ХАЗИНАНИНГ САРАФ ЭТИЛИШИГА ОИД МАЪЛУМОТЛАР. *ВЗГЛЯД В ПРОШЛОЕ*, (SI-1№ 4).
17. *Xatamova Zumradxon Nazirjonovna. INFORMATION ON THE PROVISION OF THE FUND IN THE KOKAND KHAN. Look to the past. 2020, SI, pp.590-595*